

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

RENESSANS TA'LIM UNIVERSTITETI

MURATOVA DILDORA ABDUMANAPOVNA

**O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING
JAMIYAT SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYASIGA TA'SIRI**

09.00.04 – ijtimoiy falsafa

falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Namangan - 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Content of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Muratova Dildora Abdumanapovna

O‘zbekistonda ekologik madaniyatni yuksaltirishning jamiyat sotsiomadaniy transformatsiyasiga ta’siri 3

Муратова Дилдора Абдуманаповна

Влияние повышения экологической культуры на социокультурную трансформацию общества в Узбекистане..... 34

Muratova Dildora Abdumanapovna

The impact of enhancing ecological culture on the sociocultural transformation of society in Uzbekistan..... 70

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Spisok opublikovannyyx rabot

List of published work..... 74

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI

MURATOVA DILDORA ABDUMANAPOVNA

**O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING
JAMIYAT SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYASIGA TA'SIRI**

09.00.04 – ijtimoiy falsafa

falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Namangan – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Fal298 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Renessans ta’lim universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.namdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tilavov O‘ktamjon G‘ulomovich
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Omonov Boxodir Nurullayevich
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Muxtorov Azamat
falsafa fanlari doktori, professor

Egamberdiyev Azizbek Abdumalikovich
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2021.F.76.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « ____ » _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi 161-uy, Tel.: (+99869) 228-85-01; faks: (+99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 160119, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi 161 uy. Tel.: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil « ____ » _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

R.T.Jo‘rayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

Q.O.Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

M.I.Ismoilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari
doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XXI asrda dunyo miqyosida ekologik inqiroz, iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning kamayishi kabi global muammolar tobora kuchayib, insoniyat oldidagi jiddiy tahdidlardan biriga aylanib bormoqda. Bu esa ekologik madaniyatni rivojlantirish orqali atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Zero, faqatgina jamiyatning har bir a'zosida ekologik ong va madaniyatni shakllantirish orqaligina mavjud muammolarni hal etish va kelajakda yangi ekologik tahdidlarni oldini olish mumkin. Shunday ekan, ekologik madaniyat va uning jamiyat hayotidagi o'rnini ilmiy-falsafiy jihatdan chuqur o'rganish, uning nazariy asoslarini takomillashtirish, konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish talab etilmoqda. Bu esa o'z navbatida ekologik madaniyatning falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik jihatlarini kompleks tadqiq etishni, jahon tajribasini chuqur o'rgangan holda milliy xususiyatlarimizni hisobga olgan holda yangi nazariy-metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishni, ekologik madaniyatni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini yaratishni va ularni amaliyotga joriy etishning ilmiy asoslangan tizimini shakllantirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu masalaga alohida to'xtalib "Eng muhim masala - aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga dahldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin"¹, deb ta'kidlagan edi.

Jamiyatda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish orqali ijtimoiy qadriyatlar tizimini yangilash, atrof-muhitga nisbatan yangicha munosabatni qaror toptirish zarurati tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon uzoq muddatli va tizimli yondashuvni talab etadigan murakkab jarayon bo'lib, jamiyatning barcha a'zolarining faol ishtirokini taqozo etadi. Bunda ekologik mas'uliyat hissini shakllantirish, tabiatga nisbatan empatik munosabatni rivojlantirish, ekologik xulq-atvor modellarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, insonning tabiatga bo'lgan munosabati uning umumiy madaniy saviyasi va ma'naviy qadriyatlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bois, ekologik ong va madaniyatni rivojlantirish orqali nafaqat tabiatni asrash, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini ham yuksaltirish, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'un munosabatlarni qaror toptirish imkoniyati yaratiladi.

Jamiyatda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish orqali ijtimoiy qadriyatlar tizimini yangilash, atrof-muhitga nisbatan yangicha munosabatni qaror toptirish zarurati tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon uzoq muddatli va tizimli yondashuvni talab etadigan murakkab jarayon bo'lib, jamiyatning barcha a'zolarining faol ishtirokini taqozo etadi. Shuningdek, ekologik madaniyatni yuksaltirish uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ekologik ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, yosh avlodda ekologik dunyoqarashni shakllantirish zaruratini belgilaydi. Bu vazifani amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oliy ta'lim dargohlarigacha bo'lgan barcha bosqichlarda ekologik ta'lim-tarbiya jarayonlarini muntazam ravishda takomillashtirib

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. Б.570.

borish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va eng muhimi, nazariya bilan amaliyotning uzviy bog‘liqligini ta’minlash lozim.

O‘zbekistonning BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari, Parij bitimi kabi xalqaro hujjatlar doirasidagi majburiyatlarini bajarish ekologik madaniyatni oshirishni taqozo etadi. Bu xalqaro majburiyatlar mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va ekologik barqarorlikni ta’minlash borasidagi faoliyatimizning muhim yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shuningdek, bu masala O‘zbekistonda kechayotgan iqtisodiy-ijtimoiy modernizatsiya jarayonlari bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, iqtisodiyotni “yashil” texnologiyalar asosida rivojlantirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish kabi ustuvor vazifalarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va energiya samaradorligini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shaharlashuv jarayonlarining jadallashuvi, “aqli” va “yashil” shaharlar konsepsiyasini amalga oshirish esa shahar infratuzilmasini ekologik talablar asosida rivojlantirish, yashil hududlarni kengaytirish va atrof-muhit musaffoligini ta’minlashni talab etadi. Atrof-muhit ifloslanishi bilan bog‘liq kasalliklarning oldini olish masalalari esa jamiyat salomatligini saqlash va kelajak avlod uchun sog‘lom muhitni ta’minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun jamiyatda ekologik madaniyat yuksak bo‘lishi, har bir fuqaro ekologik mas’uliyatni chuqur his etishi va atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishi talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2023 yil 23 noyabrdagi PF-199-son “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, «Yashil makon» umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019 yil 04 oktyabrdagi PQ-4477-son “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022 yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30-noyabrdagi 800-son “O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2024 yil 30-noyabrdagi 804-son “«Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy,

iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Bugungi kunda ekologik inqiroz insoniyat oldida turgan eng dolzarb global masalalardan biriga aylangan. Bu holat ekofalsafiy yondoshuvlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarida Yale universitetining Environmental School markazi ekologik tadqiqotlar va atrof-muhit muhofazasi, barqaror rivojlanish masalalari, iqlim o'zgarishi bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib boradi. Stanford universitetining Woods instituti esa ekotizimlarni saqlash, atrof-muhit muhofazasi texnologiyalari va ekologik siyosat yo'nalishlarida yetakchi hisoblanadi. Bu markazlar nafaqat ilmiy tadqiqotlar, balki amaliy yechimlar ishlab chiqish bilan ham shug'ullanadi.

Buyuk Britaniyada Oksford universitetining Environmental Change instituti iqlim o'zgarishi, ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib boradi. Germaniyaning Potsdam shahridagi Iqlim o'zgarishi ta'sirini o'rganish instituti esa iqlim o'zgarishining ta'sirini o'rganish, ekologik prognozlash va atrof-muhit monitoringi sohasida yetakchi o'rinni egallaydi.

Xitoy Fanlar akademiyasining Eko-muhit fanlari tadqiqot markazi ekologik muhofaza, atrof-muhit monitoringi va ekologik texnologiyalar yo'nalishida samarali faoliyat olib bormoqda. Hindistonning Energiya va resurslar instituti (TERI) barqaror rivojlanish, ekologik ta'lim va atrof-muhit muhofazasi sohasida muhim yutuqlarga erishgan. Rossiyada akademik Yu.A. Izrael nomidagi Global iqlim va ekologiya instituti iqlim o'zgarishi, ekologik monitoring va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha tadqiqotlar olib boradi.

Ushbu ilmiy markazlarning har biri o'z yo'nalishida fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borish, xalqaro hamkorlik dasturlarini amalga oshirish, ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ekologik siyosatni ishlab chiqish kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Ular o'rtasidagi faol hamkorlik global ekologik muammolarni hal etish, yangi ekologik yechimlar va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayonda xalqaro ekologik dasturlarda ishtirok etish va xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Insonning tabiatga bo'lgan munosabatini o'rganish ko'plab fan namoyondalari diqqat markazida bo'lgan masala hisoblanadi. Bu yo'nalishda ijtimoiy ekologiya, etnografiya, etnopedagogika, falsafiy antropologiya, madaniyat tarixi va nazariyasi, ijtimoiy falsafa va boshqa fanlar doirasida tadqiqotlar olib borilgan. Bu fanlar doirasida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning turli jihatlarini o'rganilgan.

Ushbu masala nihoyatda ko'p qirrali bo'lib, uning turli jihatlarini vatanimiz va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Insonning tabiat bilan o'zaro munosabatlarini sotsiomadaniy nuqtai nazardan tushunish orqali falsafiy-madaniy va ekologik muammolarning o'zaro bog'liqligini anglash imkoniyati yaratiladi. Bu esa zamonaviy dunyoda tobora dolzarb bo'lib borayotgan ekologik muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilar tabiat fenomenini, shuningdek, ongning tabiat va madaniyatni qabul qilishining o'ziga xos xususiyatlarini, ularning o'zaro ta'sirini o'rganganlar. Bu jarayonda tabiat nafaqat moddiy resurs sifatida, balki insoniyat madaniyatining ajralmas qismi sifatida ham qaraladi. Insoniyat tarixi davomida tabiat bilan uyg'un yashash, uni asrash va kelajak avlodlarga yetkazish masalasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Bugungi kunda esa bu masala yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki texnogen tamaddun sharoitida tabiatni asrash va unga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lish har qachongidan ham muhimroq bo'lib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar aks etgan ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda olti turkumga ajratish maqsadga muvofiq.

Birinchi turkum adabiyotlar sirasida inson va tabiat munosabatlari, insonning atrof muhitga bo'lgan ongli yondoshuvi masalasi yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar asarlarida chuqur o'rganilgan va tahlil qilingan. Ayniqsa, Sharqning ulug' allomalari – Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalarning falsafiy qarashlarida² bu masalalar keng aks etgan. Bu buyuk olimlarning ilmiy merosida tabiat va inson uyg'unligi, tabiatni asrash va undan oqilona foydalanish haqidagi qimmatli fikrlar mujassamlashgan. Ularning asarlarida insonning tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishi, atrof-muhitni asrab-avaylash zarurligi haqidagi g'oyalar asrlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu mutafakkirlarning tabiat va inson munosabatlari haqidagi falsafiy qarashlari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, zamonaviy ekologik muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ikkinchi turkum adabiyotlar o'rta asrlar, shuningdek XVII-XIX asrlar faylasuflarining keng qamrovli falsafiy asarlarini alohida ta'kidlash mumkin. Nishe, Gegel, Kant, Lerua kabi dunyoga mashhur faylasuflarning asarlarida inson va tabiat munosabatlarining chuqur falsafiy tomonlari o'z aksini topgan. Ularning falsafiy qarashlarida jamiyat sotsiomadaniyatining ajralamas qismi bo'lgan tabiat muvozanatining dolzarb masalalari, insonning o'zligini chuqur anglashi, borliqni teran idrok etish va hayot muammolari keng yoritilgan. Bu faylasuflar o'zlarining ilmiy merosida inson va tabiat o'rtasidagi murakkab aloqadorliklarni tadqiq qilishga katta e'tibor berganlar.

Uchinchi turkum adabiyotlarga bevosita ekologiya, ekologik madaniyat bilan bog'liq asarlar va tadqiqotlarni kiritish mumkin. Zero, nemis biologi Ernst Gekkel tomonidan 1866 yilda "Organizmlar umumiy morfologiyasi" kitobida jonzoqlar va ularning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini tadqiq qiluvchi fan sifatida "Ekologiya" atamasining ilmiy istilohga kiritilishi fanda ulkan siljish yasadi. Bu yangi atama faqat biologik fanlar doirasida qolmasdan, keyinchalik falsafa, ijtimoiy fanlar va ekologik tafakkurning rivojlanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Gekkel tomonidan taklif etilgan ekologiya tushunchasi yangi ekologik paradigmalarni rivojlantirdi va falsafada yangi metodologik yo'nalishni vujudga keltirdi. Bu yo'nalish keyinchalik Suess, Braumyuller, Ness, Vernadskiy, Moiseev kabi mashhur olimlar tomonidan chuqur va keng miqyosda tadqiq qilinib, ekologik bilimlarning yanada rivojlanishiga asos soldi.

XX asrdagi invayromentalizm tajribasi ekologik ongni shakllantirishda va global ekologik muammolarni hal etishda beqiyos ahamiyatga ega. To'rtinchi turkum

² Mazkur mualliflarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

adabiyotlar sifatida e'tirof etish mumkin bo'lgan A.Shveyser, D. Petulla, B.Deval, X.Rollston va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan "yangi ekologik paradigma" insoniyat oldida turgan muammolarni yangicha yondashuv bilan hal etishga qaratilgan. Bu tajriba asosida insoniy sifatlarni o'zgartirish va yangi gumanizm shakllarini shakllantirish jarayonida XX asrning o'rtalarida global muammolarni tadqiq etishda "Rim klubi"ning vakillari o'rta qildi. A. Pechchei, D. Medouz, Dj. Forrester kabi olimlarning chiqishlarida, shuningdek, E.To'ffler, S.Xantington, M.Xaydegger, G.Saymonlarning qarashlarida ijtimoiy munosabatlarni qayta ko'rib chiqish va yangi ekologik ongni shakllantirishning zarurligi alohida ta'kidlanadi.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida sinergetik paradigma ijtimoiy-madaniy va tabiiy tizimlarni o'rganishda yangi imkoniyatlar ochdi. MDH hamda jahon olimlari insonning tabiat bilan munosabatlarini ijtimoiy-madaniy kontekstda ko'rib chiqmoqdalar. Bugungi kunga kelib, Ekologik ongning ijtimoiy jihatlarini o'rganish falsafa fani uchun uchun muhim nazariy ahamiyatga ega bo'ldi. Beshinchi turkum adabiyotlar sirasiga kiritilgan manbalarda aks etgan, D.Ursul, V.Arshinov, G.Xagen, E.Girusov, A.Ismatdinov, A.Shuljenko, E.Laszlo, S. Merchant, P.Clark, S.Armstrong, S.Dikson, A.Klifford va boshqa olimlarning asosiy g'oyasi shundan iboratki, zamonaviy inson faqat texnik va iqtisodiy rivojlanish bilan chegaralanmasdan, tabiat bilan uyg'un yashash, ekologik madaniyatni rivojlantirish, global ekologik muammolarni hal etish hamda barqaror rivojlanish yo'llarini qidirishi kerak.

Va nihoyat, oltinchi turkum adabiyotlar sirasiga mamlakatimizning zamonaviy faylasuf, jamiyatshunos olimlarining keng qamrovli ilmiy izlanishlarini kiritish mumkin. S.Mamashokirov, M.Ismoilov, E.Usmonov, A.Aymatov, O'.Tilavov, Sh.Rasulova, A.Maxmudov, U.Saidova, S.Xudaynazarov, I.Xoshimova, A.Berdimuratova, N.Tangirov, A.Malikova, M. Abdullaeva va boshqa olimlarning fundamental asarlari, chuqur ilmiy tahlilga ega monografiya va dissertatsiya ishlari, shuningdek, dolzarb mavzulardagi ilmiy maqolalari alohida e'tiborga loyiq. Ularning tadqiqotlari ekofalsafaning bugungi kundagi dolzarb muammolariga, insonning axloqiy-ekologik madaniyatini shakllantirishning falsafiy jihatlariga, zamonaviy eko-estetik madaniyat muammolariga chuqur yondashadi. Shu bilan birga, bu olimlar ta'limning turli bosqichlariga ekologik tarbiyani samarali uyg'unlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratadilar.

Ekologik madaniyat muammolarining keng qamrovli tadqiq etilganiga qaramasdan, uni jamiyat sotsiomadaniyati bilan o'zaro bog'liq hodisa sifatida tizimli ravishda tadqiq etish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu masalani chuqur o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, jamiyatda ekologik ong va madaniyatni rivojlantirishning yangi yo'nalishlarini ochib beradi. Ekologik madaniyat va sotsiomadaniyat o'rtasidagi munosabatlarni tizimli o'rganish orqali biz atrof-muhitga bo'lgan munosabatimizni takomillashtirish, tabiat bilan uyg'un yashash tamoyillarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Renessans ta'lim universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 4. "Davlat ilmiy-texnika

dasturlari va xo‘jalik shartnomalari doirasida ilmiy faoliyatni tashkil etish” asosida hamda “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda ekologik madaniyatni yuksaltirishning jamiyat sotsiomadaniy transformatsiyasiga ta’sirini falsafiy-metodologik jihatdan tadqiq etish, ekologik madaniyatni rivojlantirishning konseptual asoslarini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“O‘zbekistonda ekologik madaniyatni yuksaltirishning jamiyat sotsiomadaniy transformatsiyasiga ta’siri” mavzuidagi dissertatsiya doirasida quyidagi vazifalarni hal etish belgilandi:

- ekologik madaniyat konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilish, bunda ekologik madaniyatning falsafiy kategoriya sifatidagi o‘rni, uning jamiyat hayotidagi ahamiyati va zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi rolini chuqur o‘rganish;
- jamiyat sotsiomadaniy transformatsiyasi sharoitida ekologik madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, bu jarayonda globallashuv ta’sirida yuz berayotgan o‘zgarishlar, yangi ijtimoiy munosabatlar tizimida ekologik madaniyatning namoyon bo‘lish shakllari va xususiyatlarini tahlil qilish;
- O‘zbekistonda ekologik madaniyatni yuksaltirishning tarixiy-ma’naviy, diniy-axloqiy va zamonaviy-innovatsion asoslarini tadqiq etish, milliy qadriyatlar tizimida ekologik madaniyatning o‘rni, an’anaviy ekologik bilimlar va zamonaviy yondashuvlarning uyg‘unligini o‘rganish;
- ekologik madaniyatni rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining rolini o‘rganish, raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollari, innovatsion yondashuvlar va ularning samaradorligini baholash
- “Ijtimoiy-ekologik kommunikatsiya” modelining o‘ziga xos jihatlarini ochib berish, bu modelning nazariy va amaliy ahamiyatini tahlil qilish, uning jamiyat ekologik madaniyatini oshirishdagi rolini aniqlash;
- ekologik madaniyatni yuksaltirishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, mavjud tizimni takomillashtirish yo‘llari, yangi mexanizmlarni joriy etish imkoniyatlari va istiqbollari belgilash;
- jamiyatda ekologik mas’uliyat hissini shakllantirishning samarali usullarini ishlab chiqish, bu borada ta’lim-tarbiya tizimining roli, ommaviy axborot vositalarining ahamiyati, ijtimoiy institutlarning ta’sirini o‘rganish va amaliy tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning ob’ektini O‘zbekiston jamiyatining sotsiomadaniy transformatsiyasi jarayonida ekologik madaniyatning rivojlanish tendensiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekistonda ekologik madaniyatni yuksaltirishning institutsional mexanizmlari, ijtimoiy-madaniy omillari va zamonaviy xususiyatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda aksiologik tahlil usuli orqali ekologik qadriyatlarning mohiyati va ahamiyati o‘rganilgan, tarixiy yondoshuv orqali ekologik madaniyatning rivojlanish bosqichlari va evolyusiyasi tahlil qilingan, induksiya

va deduksiya metodlari yordamida umumiy xulosalardan xususiy xulosalarga va aksincha o'tish imkoniyati yaratilgan, kuzatish usuli orqali amaliy jarayonlar va hodisalar o'rganilgan, shuningdek empirik tadqiqotlarga tayanish orqali nazariy xulosalarning amaliy tasdig'i ta'minlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ekologik madaniyatni yuksaltirishning tarixiy-ma'naviy, diniy-axloqiy va zamonaviy-innovatsion asoslari tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning o'zaro aloqadorligi va transformatsiyasi qonuniyatlari aniqlanib, shu jumladan milliy qadriyatlar tizimida ekologik madaniyatning o'rni va ahamiyati, uning zamonaviy jamiyat talablariga moslashish jarayonlari o'rganilgan;

oliy ta'lim muassasalari, sanoat korxonalarini va davlat organlarining ekologik madaniyatni rivojlantirishdagi o'zaro hamkorligining yangi istiqbolli yo'nalishlarini ochib berilib, ekologik madaniyatni yuksaltirishning yangi institutsional mexanizmi sifatida "Oliy ta'lim muassasasi-sanoat-davlat" uchburchagi tamoyilining ahamiyati ilmiy asoslantirilgan;

jamiyatning turli qatlamlari o'rtasidagi ekologik muloqot mexanizmlari, ularning samaradorligini oshirish yo'llari va vositalari batafsil tahlil qilinib, media makonda ekologik masalalarni yoritishning zamonaviy usullari va samarali kommunikatsiya strategiyalari tizimlashtirish asosida "Ijtimoiy-ekologik kommunikatsiya" modelining konseptual asoslari ishlab chiqilgan;

ta'lim tizimida ekologik tarbiyaning innovatsion metodlari ishlab chiqilib, ekologik madaniyatni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning samaradorligini oshirish mexanizmlari takomillashtirilgan hamda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va virtual reallik texnologiyalarining qo'llanilish istiqbollari ilmiy jihatdan asoslangan;

xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish usullari, global ekologik tashabbuslarga qo'shilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish strategiyasi sifatida ekologik madaniyatni yuksaltirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari tizimlashtirilib, "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish va ekologik tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- ekologik ta'lim dasturlarining samaradorligini oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan, "Yashil kampus" konsepsiyasini joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Bunday yondashuv talabalarning ekologik ta'limida muhim rol o'ynaydi va ularning ruhiy salomatligini yaxshilashga yordam beradi.
- ekologik madaniyatni yuksaltirishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan, "OTM-sanoat-davlat" hamkorlik mexanizmlari takomillashtirilgan. Bu yondashuv doirasida universitetlar yangi bilim va texnologiyalarni yaratsa, sanoat korxonalarini ularni amaliyotga tatbiq etadi, davlat esa bu jarayonni qo'llab-quvvatlaydi va muvofiqlashtiradi. Bu uch tomonlama hamkorlik ekologik innovatsiyalarni joriy etish va ekologik madaniyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.
- ekologik mas'uliyat hissini shakllantirishning samarali usullari taklif etilgan. Bu jarayonda ta'lim muassasalari, oila, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari va

ommaviy axborot vositalarining o‘zaro hamkorligini kuchaytirish orqali ekologik mas’uliyat hissini shakllantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

- zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bu tavsiyalar ekologik ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tarqatish, ekologik monitoring tizimlarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalar orqali ekologik ta’limni rivojlantirish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi;
- ekologik ta’lim-tarbiyaning uzluksizligini ta’minlash mexanizmlari takomillashtirilgan. Bu jarayon maktabgacha ta’lim muassasalaridan tortib oliy ta’lim dargohlarigacha bo‘lgan barcha bosqichlarda ekologik ta’limning mazmuni, uslublari va natijalarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Har bir bosqichda o‘quvchi va talabalarining yosh xususiyatlari va qabul qilish imkoniyatlariga mos ravishda ekologik ta’lim-tarbiya berilishi rejalashtirilgan;
- innovatsion texnologiyalarni joriy etish usullari va xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Bu tavsiyalar “yashil texnologiyalar”ni joriy etish, ekologik toza innovatsiyalarni rivojlantirish, energiya tejankor uskunalarni ishlab chiqarishni kengaytirish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Shuningdek, xalqaro ekologik dasturlarda ishtirok etish va xorijiy hamkorlar bilan aloqalarni mustahkamlash orqali ilg‘or tajribani o‘zlashtirish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqotining ilmiy asoslanganligi qo‘llanilgan metodologik yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, nufuzli mahalliy va xorijiy ilmiy jurnallarda e’lon qilingan maqolalar, ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarning amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli ilmiy muassasalar tomonidan ekspertizadan o‘tkazilib, tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida Yangi O‘zbekistonda ekologik madaniyatni yuksaltirish tizimi va amaliyotini belgilaydigan sotsiomadaniy qonuniyatlar transformatsiyasi tamoyillarining mazmun-mohiyatini tushunish hamda to‘plangan milliy tajribani chuqur o‘rganish va bu boradagi institutsional mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llariga oid yangi nazariy, empirik tadqiqotlar uchun muayyan nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining hududiy bo‘limlari, Oliy ta’lim, va fan va innovatsiyalar vazirligining “Yashil universitet” va “Yashil maktab” loyihalari doirasidagi faoliyatida, Yoshlar ishlari agentligining ekologik tarbiyaga oid tadbirlarida, oliy ta’lim muassasalarining talabalar bilan o‘tkaziladigan ekologik mavzudagi muloqot va davra suhbatlarida, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining ekologik madaniyat va atrof-muhit muhofazasiga oid ko‘rsatuv va radioeshittirishlarida, veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlarda, “Ekologiya”, “Atrof-muhit muhofazasi”, “Ekologik madaniyat asoslari” fanlari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “O‘zbekistonda ekologik madaniyatni yuksaltirishning jamiyat sotsiomadaniy transformatsiyasiga ta’siri” mavzusi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

zamonaviy jamiyatda ekologik madaniyatni yuksaltirish jarayoni va uning sotsiomadaniy transformatsiyaga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar hamda qonuniyatlariga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi Vazirligi faoliyatida foydalanilgan (xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi Vazirligining 2025-yil 24 martdagi 03-03/1-03/3-2822-sonli ma’lumotnomasi).

jamiyatning turli qatlamlari o‘rtasidagi ekologik muloqot mexanizmlari, ularning samaradorligini oshirish yo‘llari va vositalari batafsil tahlil qilinib, media makonda ekologik masalalarni yoritishning zamonaviy usullari va samarali kommunikatsiya strategiyalari tizimlashtirish asosida “Ijtimoiy-ekologik kommunikatsiya” modelining konseptual ilmiy asoslaridan O‘zbekiston ekologik partiyasi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston ekologik partiyasining 2025-yil 14-apreldagi 02/122-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalar partiyaning ekologik madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha dasturlari samaradorligining oshishiga xizmat qilgan;

oliy ta’lim muassasalari, sanoat korxonalari va davlat organlarining ekologik madaniyatni rivojlantirishdagi o‘zaro hamkorligining yangi istiqbolli yo‘nalishlarini roli va ahamiyatiga doir ilmiy xulosa va takliflardan Tadbirkorlar va ish bilarmonlar harakati. O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasiga tegishli me’yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (O‘ZLIDEP 2025-yil 08-apreldagi 01-27/170-sonli ma’lumotnomasi). Natijada O‘ZLIDEPga oid loyihalar sifati va ta’sirchanligi oshgan;

yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning zamonaviy mexanizmlari va innovatsion usullariga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Ma’naviyat va ma’rifat markazining milliy g‘oya targ‘ibotini kuchaytirish, jamiyatda sog‘lom mafkura, yangi ma’naviy makon, ma’rifatli jamiyatni barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2025-yil 1 apreldagi 10/161-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalar yoshlar o‘rtasida ekologik ong va madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

ekologik madaniyatni yuksaltirishning xalqaro tajribasi va uni milliy sharoitga moslashtirish mexanizmlariga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston ekologik harakatida foydalanilgan (O‘zbekiston ekologik harakatining 2025-yil 18 martdagi 03/18-sonli ma’lumotnomasi). Natijalar ekologik harakatning dasturiy maqsadlari hamda xalqaro ekologik loyihalarni amalga oshirish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish, shundan 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya

etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola (9 tasi respublika, 4 tasi xalqaro jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 260 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ob'ekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ekologik madaniyat va jamiyat sotsiomadaniyati mummolarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan bo'lib, uning **“Ekologik madaniyat konsepsiyasi ijtimoiy-falsafiy ta'limotlarning tadqiqot ob'ekti sifatida”** nomli birinchi fasli qo'yilgan muammoning metodologik jihatlarini ochib beradi.

Farobiy, Beruniy, Ibn Sino va Arastu fikrlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, qadimgi mutafakkirlarning tabiat haqidagi qarashlari zamonaviy fan tushunchalari bilan ko'p jihatdan uyg'unlashadi. Ularning falsafiy g'oyalari ekotizimlarning muvozanati, tabiatning o'z-o'zini tiklash qobiliyati va insonning tabiatga ta'siri kabi muhim ekologik masalalarni tushunishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Mohiyatan ekologiya (yun.-oikos - uy, turar joy va logos - ta'limot) **“organizmdan har xil darajada yuqori turadigan sistemalar; populyatsiyalar, biotsenozlar, biogeotsenozlar (ekosistemalar) va biosferaning tuzilishi, ularda kechadigan jarayonlarni o'rganadigan biologik fanlar majmui, organizmlar va ular bilan atrof muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan sifatida ham talqin qilinadi”**. **“Ekologiya”** atamasining ilmiy muomalaga kiritilishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi va bu davr tabiiy fanlarning jadal rivojlanish davri sifatida tavsiflanadi. 1866 yilda nemis biolog va faylasufi Ernst Genrix Gekkel (1834-1919) **“Organizmlarning umumiy morfologiyasi”** nomli asarida **“ekologiya”** (nem. Ökologie) atamasini ilk bor qo'llagan va **“organizmning tashqi dunyo bilan munosabatlari haqidagi fan”** sifatida ta'riflagan va uni **“organizmlarning yashash sharoitlari bilan bog'liq barcha munosabatlarni o'z ichiga oluvchi”** fan sifatida tushuntirgan. Bu ta'rif keyinchalik ko'plab olimlar tomonidan rivojlantirildi.

1895 yilda amerikalik zoolog Stiven Alfred Forbs (1844-1930) ekologiyaga yanada aniqroq ta'rif berdi. U ekologiyani **“hayvonlar va o'simliklarning boshqa tirik mavjudotlar va ularni o'rab turgan muhit bilan munosabatlarni o'rganuvchi fan”** sifatida ta'rifladi. Forbsning ushbu ta'rif ekologiya fanining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi va keyingi tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Ekologiya fanining shakllanish jarayonida bir qator muqobil atamalar ham taklif qilingan. Jumladan, fransuz zoologi Izidor Joffrua Sent-Iler (1805-1861) **“etologiya”** atamasini taklif qilgan bo'lib, uni **“organizmlarning oila va jamiyatdagi o'zaro munosabatlarni o'rganuvchi fan”**

sifatida ta'riflagan. Biroq, keyinchalik "etologiya" atamasi hayvonlar xulq-atvorini o'rganuvchi fan sifatida qo'llanila boshladi.

1894 yilda ingliz tabiatshunosi va faylasufi Sent-Jorj Jekson Mivart (1827-1900) "geksikologiya" (ing. hexicology) atamasini taklif qildi. U o'zining "Tabiatdan saboqlar" nomli asarida bu atamani "organizmlar va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganuvchi fan" sifatida ta'rifladi. Biroq, bu atama ham keng tarqalmadi va "ekologiya" atamasining ilmiy istilohi ustunlik qildi.

Zamonaviy falsafa doirasida tabiiy va sun'iy tizimlarning o'zaro ta'siri masalasi, ayniqsa ekologik madaniyat nuqtai nazaridan, alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu masala, xususan, antropogen omillarning tabiiy tizimlarga ta'siri yaqqol kuzatilayotgan holatda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Inson tomonidan yaratilgan tizimlar va tabiiy tizimlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar ekologik falsafa, texnika falsafasi va ijtimoiy ontologiya kabi sohalarining diqqat markazida turadi. Inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan ekologik tahdidlar global miqyosda namoyon bo'lar ekan, bu munosabatlar ekologik madaniyat masalasini yanada dolzarblashtiradi.

Bruno Latur o'zining "Gayyaga yuzlanish" asarida Inson tomonidan yaratilgan tizimlar va tabiiy tizimlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yangi muhit nuqtai nazaridan tahlil qiladi va insoniyat oldida turgan ekologik muammolarning ontologik asoslarini ochib beradi. Laturning yondashuvi inson va tabiat o'rtasidagi chegaralarni qayta ko'rib chiqishga va ularni yagona murakkab tizim sifatida tushunishga chaqiradi. Bu global tahdidlar orasida iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi, okeanlarning ifloslanishi kabi muammolar alohida o'rin tutadi.

Ontologik jihatdan, ekologik madaniyat insonning tabiat bilan uzviy va ajralmas bog'liqligini hamda ularning yagona va yaxlit tizim sifatida mavjudligini tan olishga asoslanadi. Bu qarash insonni tabiatdan ajratib qaraydigan an'anaviy dualistik yondashuvdan farq qiladi va ekologik muammolarga yangicha nigoh bilan qarashga undaydi. Gnoseologik nuqtai nazardan, ekologik madaniyat konsepsiyasi insonning tabiat haqidagi bilimlarini doimiy ravishda chuqurlashtirish va ekotizimlarning murakkab mexanizmlarini to'liq tushunish zaruratini alohida ta'kidlaydi. Aksiologik jihatdan, ekologik madaniyat konsepsiyasi tabiatni o'ziga xos qadriyat sifatida tan olish va uni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish mas'uliyatini chuqur anglashga asoslanadi. Bu yondashuv tabiatni faqat inson ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida emas, balki o'z-o'zicha qadrlı deb bilishni taqozo etadi.

Mazkur bobning ikkinchi faslida ekologik barqarorlik tizimini shakllantirishda inson omili muammolariga oid yondoshuvlar yoritib berilgan bo'lib, unda, Farobiy, Protogor, Aflotunning asarlarida insonning jismoniy tabiati haqidagi chuqur mulohazalar berilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qadriyatlar nazariyasi maxsus vaziyatlarda yuzaga keladigan axloqiy masalalarni hal qilish uchun aniq qoidalar va tartiblarni ta'minlab bera olmaydi. Atrof-muhit himoyachilari esa aynan shunday aniq ko'rsatmalarga, bir-biriga zid bo'lgan qadriyatlardan qaysi biri ustuvor ekanligini aniqlash uchun amaliy me'yorlarga ehtiyoj sezadilar. Shu nuqtai nazardan, qadriyatlar nazariyasi amaliy harakat uchun to'laqonli qo'llanma bo'la olmaydi. Bu nazariya yovvoyi tabiat va atrof-muhitning inson uchun qadrlı ekanligini tasdiqlovchi zamonaviy

ekologik qarashlarga qarama-qarshi turadi. Bu esa uni zamonaviy ekologik muammolarni hal etishda qo'llash imkoniyatlarini cheklaydi.

“Falsafiy ensiklopedik lug‘at”da ko‘rsatilganidek, “o‘rta asr falsafasi va diniy dogmatizmga qarama-qarshi o‘laroq, klassik ratsionalizm buyuk mutafakkirlar Rene Dekart, Benedikt Spinoza, Gotfrid Leybnis timsolida butun dunyoni qamrab oluvchi cheksiz sabab-oqibat zanjiri - tabiiy tartib g‘oyasidan kelib chiqqan”. Bu faylasuflarning har biri o‘z asarlarida tabiat qonunlarini ratsional anglash va tushuntirish imkoniyatlarini asoslashga harakat qildilar.

Ko‘pchilik falsafa tarixchilari Spinozani naturfaylasuf deb hisoblaydilar, chunki u insonni tabiatning ajralmas bir qismi sifatida chuqur talqin qilgan. Uning falsafiy tizimida tabiat va inson o‘rtasidagi munosabat markaziy o‘rinni egallaydi. Biroq, ayni paytda, Spinoza tana va ruhni substansiyaning ikki atributi ontologik mustaqilligi tufayli o‘zaro bog‘liq emas deb hisoblagan. Bu qarash uning falsafasida muhim o‘rin tutib, keyingi davr falsafiy fikriga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Ushbu bobning “Jamiyat sotsiomadaniy transformatsiyasida ekologik paradigmalarning o‘rni va roli: retrospektiv tahlil” nomlangan pagarafida “Ekologik paradigma” – bu tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni belgilab beruvchi qarashlar, me’yorlar, tamoyillar, qoidalar va qadriyatlar tizimini ifodalovchi keng qamrovli tushuncha ekanligi ochib berilgan.

Unda antropotsentrik paradigma, biotsentrizm, asrning buyuk olimi V.I. Vernadskiy tomonidan ilgari surilgan noosfera konsepsiyasi, koevolyusiya tushunchasini, Arne Nessning chuqur ekologiya konsepsiyasi hamda ijtimoiy ekologiya tushunchalari yoritib berilgan.

Ekologik paradigmalarning evolyusiyasi ko‘rsatadiki, jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida ularning integratsiyalashuvi va yangi kompleks yondashuvlarning shakllanishi kuzatilmoqda. Bu jarayon ekologik muammolarni yanada chuqurroq tushunish va ularning yechimini topishda yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Turli ekologik paradigmalarning o‘zaro bir-birini to‘ldirishi va boyitishi natijasida yanada samarali yechimlar ishlab chiqilmoqda va bu tendensiya kelgusida yanada rivojlanishi kutilmoqda.

Ishning **“Jamiyat sotsiomadaniy holati ekologik madaniyatni belgilovchi omil sifatida”** deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi fasli jamiyat sotsiomadaniy holati va ekologik madaniyat o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik masalalariga bag‘ishlangan

Ilmiy istilohda sotsiomadaniy muhit deganda, inson hayot faoliyatining barcha shart-sharoitlarini o‘zida aks ettiruvchi makon nazarda tutiladi. Bu muhit insonning kundalik turmushidan tortib, uning ma’naviy va madaniy hayotigacha bo‘lgan barcha jabhalarni qamrab oladi. Sotsiomadaniyatning asosiy unsurlari qatoriga madaniy-tarixiy meros, maishiy turmush tarzi, ijtimoiy-psixologik, ma’naviy-axloqiy, siyosiy va ekologik madaniyati kiradi. Madaniy-tarixiy meros avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar va tarixiy yodgorliklarni o‘z ichiga oladi. Badiiy muhit san’at asarlari, me’morchilik obidalari, adabiyot va musiqa kabi madaniy boyliklar bilan bog‘liq. Ijtimoiy-psixologik muhit jamiyatdagi munosabatlar, urf-odatlar va axloqiy me’yorlarni qamrab olsa, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar esa insonlarning diniy e’tiqodi, axloqiy qadriyatlari va ma’naviy dunyoqarashini belgilaydi. Siyosiy muhit jamiyatdagi

siyosiy tizim, qonunlar va boshqaruv tamoyillarini o'z ichiga olsa, ekologik muhit tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi.

Sotsiomadaniyatni tushunishda tizimli-funksionalizm ta'limoti muhim ahamiyat kasb etadi. Tizimli-funksional yondoshuv asosidagi dastlabki tadqiqotlarni fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeym amalga oshirgan. U "jamiyat - bu o'zining mohiyati jihatidan nomoddiy bo'lgan, ammo uni tabiiy hodisa sifatida tasavvur qilish mumkin bo'lgan ijtimoiy reallikdir", degan g'oyani qat'iy himoya qilgan. Keyinchali, Dyurkgeym konsepsiyasi Talkott Parsons tomonidan yanada takomillashtirildi va metodologik jihatdan boyitildi.

Bizning fikrimizcha, ekologik madaniyat hamda umumiy sotsiomadaniyat o'rtasidagi dialektik bog'liqlik nimadan iborat degan tabiiy va muhim savol o'rta qiqadi. Bu savolning mohiyati nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, jamiyatimiz rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan birini belgilaydi. Bu masala zamonaviy jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi va bugungi kunda ko'plab olimlar, mutaxassislar hamda jamoat arboblari tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Gap shundaki, bu ikki tushuncha bir-biridan ayro holda mavjud bo'lishi mumkin emas, chunki ular doimiy ravishda bir-birini to'ldirib va boyitib boradi. Bu jarayon uzluksiz davom etadigan tabiiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida kuzatiladi. Ekologik madaniyat umumiy sotsiomadaniyatning ajralmas qismi bo'lib, ular o'rtasidagi chambarchas aloqa insoniyat taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylangan. Shu bilan birga, bu ikki madaniyat turining o'zaro ta'siri va uyg'unligi kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanish asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida jamiyatning barqaror rivojlanishi va kelajak istiqbollari uchun mustahkam zamin yaratadi.

Ikkichni bobning "Ekologik qadriyatlarining shakllanishi jamiyat sotsiomadaniy transformatsiyaning zamonaviy tendensiyasi sifatida" deb nomlangan ikkinchi faslida ekologik qadriyatlarning shakllanishi zamonaviy jamiyatning eng muhim xususiyatlaridan biriga aylangani asoslantirilgan.

Ekologik ong va madaniyat endi nafaqat tabiatni muhofaza qilish organlari yoki ekologlarning ishi, balki har bir fuqaroning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Odamlar atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarni o'zgartirmoqdalar va ekologik masalalarga yanada mas'uliyatliroq yondashmoqdalar. Bu esa o'z navbatida jamiyatda yangi qadriyatlar tizimining shakllanayotganidan dalolat beradi. Bu qadriyatlar tizimi insoniyat kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, O'zbekistonda so'nggi yillarda ekologik masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu esa aholi orasida ekologik madaniyatning yangi qadriyat sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu sa'y-harakatlar natijasida jamiyatimizda ekologik madaniyat yangi bosqichga ko'tarilmoqda, bu esa kelajak avlodlar uchun sog'lom va barqaror muhitni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ekologik qadriyatlar tizimini o'rganishning metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etadi. Bu fundamental yondashuv ekologik qadriyatlarni yaxlit tizim sifatida, uning barcha elementlari o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqadorlik va ko'p qirrali

bog‘liqlikni hisobga olgan holda chuqur tadqiq etish imkonini beradi. Tizimli yondashuv orqali biz ekologik qadriyatlarning nafaqat alohida komponentlarini, balki ularning o‘zaro ta‘sirini va rivojlanish dinamikasini ham to‘liq anglab yetish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Inson borlig‘iga oid qadriyatlar masalasi tarixiy-falsafiy an‘analarda qadimgi davrlardan boshlab o‘rganila boshlangan. Antik davrda “qadriyat”, “qadriyatlar olami”, “qadriy hukmlar” kabi kategoriyalar hali falsafiy mushohadaning alohida predmeti sifatida shakllanmagan bo‘lsa-da, bu tushunchalar faylasuflar e‘tiboridan chetda qolmagan. Qadimgi Yunon faylasuflarining asarlarida, xususan, Platon, Arastu, shuningdek Rim faylasuflari Seneka va Sitseron ijodida qadriyat tushunchasi foyda va ezgulik bilan bog‘liq holda talqin etilgan. Ayniqsa, Arastu o‘zining falsafiy qarashlarida qadriyat masalasiga alohida e‘tibor qaratgan. U “Ko‘p jihatdan foydali bo‘lgan narsa ko‘proq qadriyatga ega bo‘ladi... Shuning uchun ham boylik va sog‘lik eng oliy ne‘matlar hisoblanadi, chunki ular boshqa barcha ne‘matlarni ta‘minlab beradi”, deb ta‘kidlagan.

Bizning fikrimizcha, barqaror rivojlanish tamoyillarining ustuvorligi zamonaviy ekologik qadriyatlar tizimining eng muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi. Bu fundamental tamoyillar iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy adolat va ekologik xavfsizlik o‘rtasidagi nozik muvozanatni ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, ular o‘zaro uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi.



“Barqaror rivojlanish (sustainable development) tushunchasining aksariyat talqinlari G.X. Brundtland Komissiyasi tomonidan berilgan ta‘rifga asoslanib, uni haqli ravishda klassik termin deyish mumkin, deb yozadi N.Tangirov. - Bunda iqtisodiyotning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash insonning atrof-muhit (biosfera) bilan o‘zaro harakatda rivojlanishi bilan qay darajada kelishilganligiga bog‘liq. Makro-mezo- va mikro darajada ijtimoiy ekologik-iqtisodiy tizimlar barqaror rivojlanishiga o‘tish – umuman, iqtisodiyot, soha, korxonada – yangi huquqiy normalar, yangi boshqaruv tizimini talab etadi”.

Ushbu bobning uchinchi fasli jamiyat sotsiomadaniy transformatsiyada ekologik ideallarning o‘rni va rolga bag‘ishlangan. Zero, ideallarni o‘rganish orqali biz nafaqat

jamiyatning bugungi holatini baholash, balki uning kelajak taraqqiyot yo‘nalishlarini ham belgilab olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Bu jarayonda ideallarning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy, madaniy, tarixiy omillarni har tomonlama tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ideallarning jamiyat hayotidagi amaliy ahamiyati, ularning ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri masalalari ham chuqur o‘rganishni talab etadi.

Avvalo, “ideal deganda (yun. idea — timsol, g‘oya, tushuncha) - biror narsa, voqea va hodisaning oliy namunasi, kamoloti; ayrim shaxs, shaxslar guruhi, tabaqa va jamiyat intiluvchi oliy maqsad”, tushuniladi. Qadriyatlar tizimini o‘rganish borasida olib borilgan barcha tadqiqotlarda ideal tushunchasi markaziy o‘rin egallaydi. Ko‘pchilik olimlarning fikricha, ideallar - bu inson va jamiyat intilayotgan oliy maqsadlardir. Ba’zi mualliflar ideallarni maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatning umumiy shakllari deb hisoblaydilar va “ideal kategoriyasi chuqur ijtimoiy ahamiyatga ega” deb ta’kidlaydilar. Boshqalar esa uning sub’ektivligini qayd etib, “ideal sub’ektning yakuniy, umumiy, eng muhim maqsadi sifatida namoyon bo‘ladi” deb yozadilar. Uchinchi guruh olimlari ideallarni ongning dialektik-ikki yoqlama, ijtimoiy-individual tabiatining aksi sifatida ko‘rib, “ideallarda individual va jamoaviy faoliyatning yakuniy maqsadlari aks etishini” qayd etadilar. To‘rtinchi guruh vakillari idealning muhim xususiyati sifatida “teleologik va aksiologik tomonlarning birligi”ni ko‘rsatadilar. Beshinchi guruh olimlari esa ideallarni qadriyatlar tizimining organik elementi sifatida ko‘rib, uni “zaruriy, lozim va istalgan maqsad” sifatida tavsiflaydilar.

Biz ekologik ideal jamiyatning barcha sohalarida o‘z aksini topishi kerak:

Sohalar kesimida	Ekologik idealning namoyon bo‘lishi
Iqtisodiyotda	“yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tizimini yaratish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, chiqindilarni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish
Ta’limda	ekologik ma’rifatni kuchaytirish, yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirish, maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda ekologik ta’limni joriy etish, amaliy ekologik loyihalarni amalga oshirish, o‘quvchi va talabalarning tabiatni muhofaza qilish faoliyatida ishtirokini ta’minlash
Siyosatda	ekologik xavfsizlikni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ekologik qonunchilikni takomillashtirish, tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, mintaqaviy va global ekologik muammolarni hal etishda faol ishtirok etish
Madaniyatda	tabiatga nisbatan ehtiromli munosabatni shakllantirish, ekologik qadriyatlarni targ‘ib qilish, ommaviy axborot vositalari orqali ekologik ma’rifatni keng yoyish, milliy an’analardagi tabiatga ehtiromli munosabat tajribasini qayta tiklash, san’at va adabiyot orqali ekologik ongni rivojlantirish
Texnologiyalarda	ekologik toza innovatsiyalarni rivojlantirish, “yashil texnologiyalar”ni joriy etish, energiya tejamkor uskunalarni ishlab chiqarishni kengaytirish, atrof-muhitga zararli ta’sirni

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekistonda ekologik madaniyatni yuksaltirishning an’anaviy va zamonaviy mexanizmlari” deb nomlangan bo‘lib, uning** birinchi faslida zamonaviy o‘zbek jamiyatida ekologik ong va ekologik madaniyat shakllanishining ma’naviy-falsafiy asoslari yoritilgan. Ushbu bobning “Zamonaviy o‘zbek jamiyatida ekologik ong va ekologik madaniyat shakllanishining ijtimoiy-falsafiy asoslari”ga bag‘ishlagan birinchi faslida bizning fikrimizcha, o‘zbek jamiyatida insonning ma’naviy hayoti va tabiat bilan uyg‘unligi azaldan muhim o‘rin tutgan. Ajdodlarimizning atrof-muhitga ehtiyotkor munosabati xalqimiz urf-odatlarida va qadriyatlarida chuqur aks etgan. Biroq globallashuv va texnologik taraqqiyot bu qadriyatlar tizimini sezilarli o‘zgartirmoqda.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy qadriyatlar tizimida inson taraqqiyotning bosh maqsadi sifatida markaziy o‘rinni egallamoqda. Bu qarash tasodifiy emas, balki insoniyat tarixiy taraqqiyotining mantiqiy natijasidir. Bu yerda gap oddiy inson emas, balki erkin fikrlaydigan, hayotga, mehnatga va madaniyatga ijodiy yondashadigan shaxs haqida bormoqda.

Biz tadqiqot ishimizda ajdodlarimiz meroslariga murojaat qilib, Abu Rayhon Beruniyning “Minerologiya” deb tarjima qilingan “Kitob al-jamohir fi ma’rifat al-javohir” asarida tabiat va inson munosabatlarini chuqur tahlil qilgan, degan xulosaga keldik. Beruniyning fikricha, tabiat – bu tirik organizm bo‘lib, inson uning ajralmas qismidir. Bu fikr orqali olim insonning tabiatdan ustun emas, balki uning bir bo‘lagi ekanligini ta’kidlaydi.

Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” (“Al-Qonun fit-tib”) asarida u nafaqat kasalliklarni davolash usullarini, balki sog‘lom turmush tarzining tabiat bilan uyg‘un bo‘lishi kerakligini ham batafsil bayon etgan. Ibn Sino kasalliklarni davolashdan ko‘ra, ularning oldini olish muhimroq ekanligini ta’kidlagan. Ibn Sino bu g‘oyani rivojlantirib, inson organizmi va tabiiy muhit o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, tabiiy omillarning inson salomatligiga ta’sirini hisobga olish zarurligini isbotlab bergan. U inson salomatligiga ta’sir etuvchi olti asosiy omilni ajratib ko‘rsatgan va birinchi o‘ringa “havo va atrof-muhitning holati” degan omilni qo‘yadi.

Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, o‘zbek jamiyatining ekologik ongi va madaniyati shakllanishida islom dinining ta’siri yaqqol seziladi. Aslida har qanday dinning ommaviy ongni ma’lum qadriyatlar va tamoyillarga yo‘naltirishdagi ahamiyati g‘oyat katta. Din azaldan insonlarning dunyoqarashi, hayot tarzi va axloqiy tamoyillarini shakllantirishda yetakchi o‘rin tutib kelgan.

Qur’oni karimda bu haqda ko‘plab oyatlar mavjud bo‘lib, ular insonlarni tabiatga nisbatan ehtiyotkor bo‘lishga undaydi. Jumladan, «Eb-ichinglar va isrof qilmanglar, deyilgan oyatlar. “Isloh qilinganidan so‘ng yer yuzida fasod qilmang va undan qo‘rqib umid ila duo qiling. Albatta yaxshilik qiluvchilarga Ollohning rahmati yaqindir” (A’rof surasi, 56-oyat) oyati esa tabiatdagi mavjud tartib va muvozanatni buzmaslikka chaqiradi. Qur’oni karimning “Rum” surasida “Qilgan amallarining ba’zisini tottirish uchun odamlarning qo‘llari kasb qilgan narsalar tufayli quruqlik va dengizda fasod zohir bo‘ldi” (41-oyat) deya marhamat qilinadi. Shuningdek, Payg‘ambarimiz (s.a.v) “Agar qiyomat qoim bo‘layotgan bo‘lsa-yu, birortangizning qo‘lida ko‘chat bo‘lsa, uni ekishga

qodir bo'lsa, albatta ekib

Bizning fikrimizcha, zamonaviy o'zbek jamiyatida ekologik ong va ekologik madaniyat shakllanishining ma'naviy-falsafiy asoslari faqat diniy yoki milliy qadriyatlardangina iborat emas. Bu asoslarni umumlashtirgan holda quyidagi jadvalni taklif qilishimiz mumkin:

Asoslar turi	Yo'nalishlar	Asosiy unsurlar
1. Tarixiy-ma'naviy asoslar	Ajdodlar merosi	Tabiatga ehtirom va uni e'zozlash an'analari Suvni muqaddas bilish, tuproqni ona kabi ulug'lash Bog'-rog'lar barpo etish, obodonlashtirish madaniyati Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tajribasi
	Diniy qadriyatlar	Islomiy ta'limotda tabiatni asrash tamoyillari Tabiatni Allohning in'omi sifatida qadrlash Isrofgarchilikka qarshi kurash g'oyalari Atrof-muhitni asrashni ibodat darajasida ko'rish
2. Falsafiy asoslar	Sharq falsafasi ta'siri	Inson va tabiat uyg'unligi g'oyasi Tabiatni jonli organizm sifatida tushunish Koinot va inson birligi konsepsiyasi Tabiat bilan uyg'un yashash falsafasi
	Zamonaviy falsafiy qarashlar	Barqaror rivojlanish konsepsiyasi Ekologik xavfsizlik tamoyillari Global ekologik mas'uliyat g'oyasi Kelajak avlodlar oldidagi javobgarlik
3. Ijtimoiy-madaniy asoslar	Milliy qadriyatlar	Mahalla madaniyati va jamoaviy mas'uliyat Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish an'analari Hashar tizimi orqali atrof-muhitni asrash Tejamkorlik va isrofgarchilikka qarshi kurashish
	Zamonaviy ijtimoiy tendensiyalar	Ekologik ta'lim va tarbiya tizimi Ekologik harakatlar va tashabbuslar Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati Yoshlar orasida ekologik ongning o'sishi
4. Davlat siyosati darajasidagi asoslar	Huquqiy-me'yoriy baza	Ekologik qonunchilik tizimi Atrof-muhitni muhofaza qilish strategiyasi Ekologik nazorat mexanizmlari Tabiatni asrash bo'yicha davlat dasturlari
	Institutsional mexanizmlar	Ekologik ta'lim tizimi Atrof-muhitni muhofaza qilish idoralari Ekologik monitoring tizimi Jamoatchilik nazorati mexanizmlari
5. Zamonaviy tendensiyalar	Global ekologik harakatlarga integratsiya	Xalqaro ekologik tashkilotlar bilan hamkorlik Global ekologik tashabbuslarda ishtirok Mintaqaviy ekologik dasturlarda qatnashish Xalqaro tajribani o'zlashtirish
	Innovatsion yondashuvlar	"Yashil" texnologiyalarni joriy etish Ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash Raqamli texnologiyalardan foydalanish Ekologik ta'limda yangi usullarni qo'llash
6. Kelajakka yo'naltirilgan asoslar	Strategik maqsadlar	Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish Ekologik xavfsizlikni ta'minlash "Yashil" iqtisodiyotga o'tish Sog'lom atrof-muhitni saqlab qolish

	Istiqbolli yo‘nalishlar	Ekologik ta’limni takomillashtirish Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish Ekologik madaniyatni rivojlantirish Xalqaro hamkorlikni kengaytirish
--	-------------------------	--

Mazkur bobning “Ekologik madaniyatni shakllantirishga zamonaviy yondoshuv ehtiyoji: xorij tajribasi” deb nomlangan ikkinchi faslida bugungi kundagi ekologik vaziyat yangi ekologik madaniyatni shakllantirishda zamonaviy usul va vositalardan foydalanish, hamda global va mahalliy darajadagi harakatlarni muvofiqlashtirishni talab qilayotgani tahlil qilingan.

Yevropa mamlakatlari orasida esa Germaniya va Skandinaviya davlatlarining tajribasi alohida e’tiborga molik, chunki bu mamlakatlar ekologik ta’lim va tarbiya sohasida yuqori natijalarga erishgan. Germaniya va Skandinaviya davlatlarida ekologik madaniyat nafaqat ta’lim tizimida, balki jamiyatning barcha sohalarida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ularning tajribasida ekologik ong va mas’uliyat yoshlikdan shakllantiriladi.

Yaponiyada ekologik ta’lim 1970 yildan boshlab rivojlana boshlagan. Dastlab “Kankyō Kyōiku (Environmental Education)” atamasi paydo bo‘lgan va u asosan atrof-muhit ifloslanishi muammolarini o‘rganishga qaratilgan edi. Yaponiyada ekologik ta’lim uch asosiy tayanch nuqtaga asoslanadi. Tadqiqotchi Yayoi Kodamaning ta’kidlashicha, “Birinchidan, oilada ekologik tarbiya ilk yoshdan boshlanadi va kundalik hayot tarziga singdiriladi. Bu jarayonda bolalarda tabiatga nisbatan g‘amxo‘r munosabat shakllantiriladi va ekologik qadriyatlar oila muhitida o‘zlashtiriladi. Ikkinchidan, ta’lim muassasalarida ekologik bilimlar tizimli ravishda beriladi, bunda nazariy va amaliy bilimlar uyg‘unligi ta’minlanadi. Uchinchidan, jamiyat doirasida ekologik faoliyat rag‘batlantiriladi, bu esa ekologik madaniyatning keng jamoatchilik orasida shakllanishiga xizmat qiladi”.

Skandinaviyaning ekologik madaniyatni yuksaltirishdagi yana bir o‘ziga xos tajribasi – “ekologik fuqarolikdir”³. Bu tushuncha jamiyatning barcha qatlamlarida chuqur ildiz otgan, bu esa ekologik madaniyatni yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi. Ekologik fuqarolik konsepsiyasi Skandinaviya mamlakatlarida 1970-yillardan boshlab rivojlana boshlagan bo‘lib, bugungi kunda u ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylangan.

Norvegiyaning "Tabiat bog‘chalari"da bolalar kunining aksariyat qismini tabiat qo‘ynida o‘tkazib, ekologik ko‘nikmalarni erta yoshdan o‘zlashtiradilar. Natijada, bunday bog‘chalar bitiruvchilarining 85% dan ortig‘i faol ekologik fuqaroga aylanmoqda.

Shvesiyaning "Barqaror rivojlanish uchun ta’lim" dasturi doirasida barcha fanlar ekologik masalalarni qamrab oladi. Matematikada ekologik statistika, adabiyotda tabiat tasviri, kimyoda atrof-muhit muhofazasi o‘rganiladi, bu esa o‘quvchilarda ekologik masalalarga kompleks qarashni shakllantiradi.

³ Martinsson J., Lundqvist L. Ecological citizenship: coming out “clean” without turning “green”?// Environmental Politics Volume 19, 2010 - Issue 4. P.518-537

Daniya oliy ta'lim muassasalaridagi "Yashil universitet" dasturi doirasida maxsus fanlar o'qitilishi bilan birga, energiya tejamkorligi, chiqindilarni qayta ishlash kabi amaliy loyihalar amalga oshiriladi.

Skandinaviyada ekologik mavzudagi teleko'rsatuvlar praym-taym vaqtida namoyish etiladi, ijtimoiy tarmoqlarda #GreenNordics kabi hashteglar orqali ekologik tashabbuslar qo'llab-quvvatlanadi. Finlyandiyadagi "Ekologik fuqaro" mukofoti, grantlar va soliq imtiyozlari orqali fuqarolarning ekologik faolligi rag'batlantiriladi.

Mazkur bobning uchinchi fasli "Jamiyat ekologik madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni" deb nomlangan bo'lib, unda texnik vositalarning keng qo'llanilishi shaxslararo muloqotni ommaviy muloqotga aylantirib, kommunikatsiyaning yangi shakllarini yaratayotgani, buning natijasida bir vaqtning o'zida ko'p sonli odamlar bilan aloqa o'rnatish, fikr almashish va ma'lumot uzatish imkoniyati paydo bo'lib, bu jarayon tobora takomillashib borayotgani tahlilga olingan. Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va videokonferensiya tizimlari bu imkoniyatlarni yanada kengaytirmoqda. Bu esa o'z navbatida jamiyatning rivojlanishiga, yangi g'oyalarning tarqalishiga va innovatsion yechimlarning joriy etilishiga samarali yordam bermoqda. Bunday o'zgarishlar nafaqat alohida shaxslar, balki butun jamiyat miqyosida yangi imkoniyatlar va istiqbollarni ochib bermoqda, shu bilan birga yangi mas'uliyat va vazifalarni ham yuklamoqda.

Shuni alohida ta'kidlashimiz joizki, jamiyatning sotsiomadaniy rivojlanishida axborotlashtirish jarayonlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insoniyat tarixida ilk bor global madaniy makon shakllandi. Bu makonda turli xalqlar, millatlar va etnik guruhlarining madaniyatlari o'zaro ta'sirlashib, bir-birini boyitmoqda. Zamonaviy raqamli texnologiyalar tufayli dunyoning istalgan nuqtasidan turib boshqa xalqlarning madaniy merosi, san'ati, urf-odatlarini va qadriyatlarini bilan tanishish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu esa o'z navbatida madaniyatlararo muloqotning yangi shakllari va mexanizmlarini yuzaga keltirmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda shakllanayotgan virtual jamoalar milliy, etnik va madaniy chegaralarni transformatsiya qilib, global miqyosdagi yangi ijtimoiy tuzilmalarni yaratmoqda. Ekologiya faollari, san'at ixlosmandlari va turli soha mutaxassisleri o'z virtual hamjamiyatlarida fikr almashish va loyihalarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lmoqdalar. Raqamli texnologiyalar milliy tillarning ijtimoiy funksiyalarini kengaytirib, ularning nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Elektron kutubxonalar va raqamli arxivlar madaniy merosni saqlash, ommalashtirish va avlodlar o'rtasida uzatishning yangi institutiga aylanmoqda.

Mashhur yapon olimi Yonedzi Masuda axborot jamiyati haqida muhim fikrlarni ilgari surgan. Uning fikricha, axborot jamiyatida nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi va qadriyatlar tizimi ham tubdan o'zgarishi kerak. Bu g'oya bugungi kunda o'zining to'liq isbotini topmoqda. Y.Masuda axborot jamiyatida madaniy ma'rifatning qiymati moddiy boyliklarga nisbatan ortib borishini ta'kidlagan. Bu juda muhim bashorat bo'lib, bugungi kunda bilim, malaka va madaniy saviya inson hayotidagi eng muhim omillarga aylanib bormoqda. "Axborot jamiyatida insonlar moddiy boyliklardan ko'ra ko'proq ma'naviy boyliklarga, shaxsiy rivojlanishga va ijodiy faoliyatga e'tibor

qaratmoqdalar. Bu esa o‘z navbatida yangi kasblar, yangi ish shakllari va yangi hayot tarzining paydo bo‘lishiga olib kelmoqda”.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, axborot modda va energiya bilan bir qatorda kuchli ekologik omil hisoblanadi. U nafaqat texnik, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlarga ham ta’sir ko‘rsatuvchi muhim faktordir. Axborot oqimlarining global xarakteri va ularning jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib borishi yangi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. U zamonaviy insonning ijtimoiy hayoti sifatini belgilaydi va uning o‘z-o‘zini saqlab qolishi muammosini keltirib chiqaradi. Bu muammo insonning axborot muhitida o‘z-o‘zini boshqarishi va moslashishi bilan bog‘liq ko‘plab masalalarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, axborot muhitining to‘g‘ri shakllantirilishi insonning ekologik madaniyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

“Aqlli” texnologiyalar sohasida sun’iy intellekt tizimlari, ma’lumotlarni qayta ishlash algoritmlari va sensorlar tarmog‘i kabi innovatsion yechimlar atrof-muhit monitoringini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Bu tizimlar havoning ifloslanish darajasini aniqlash, suv resurslarining sifatini nazorat qilish, tuproq tarkibidagi o‘zgarishlarni kuzatish kabi muhim vazifalarni bajarmoqda. Ular orqali olingan ma’lumotlar tezkor qarorlar qabul qilish va muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish imkonini bermoqda.

Bu texnologiyalarning joriy etilishi nafaqat ekologik muammolarni hal etishga, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qilmoqda. Zamonaviy “aqlli” va “yashil” texnologiyalar resurslarni tejash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash orqali barqaror rivojlanishga hissa qo‘shmoqda. Bu esa o‘z navbatida korxonalar va tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam bermoqda.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“O‘zbekistonda ekologik madaniyatni yuksaltirishning innovatsion modellari”** deb nomlangan bo‘lib, “ekologik ong va madaniyat” tushunchasini nazariy jihatdan emas, balki amaliy nuqtai nazardan chuqurroq anglash zarurati, bu tushunchani odamlarning atrof-muhit muammolarini qanday idrok etishi, qanday baholashi va ularga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishini o‘rganish maqsad va vazifalariga moslashtirish lozimligi ochib berilgan. Mazkur bobning “Ekologik madaniyatni yuksaltirishda “Ijtimoiy-ekologik kommunikatsiya” modelining o‘ziga xos jihatlari”ga bag‘ishlangan birinchi faslida tadqiqotchi ekologik ongda bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan yaxlit tuzilmalar mavjudligini, ular ekologik tasavvurlar yoki ekologik dunyoqarash turlari sifatida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi.


Metodologik jihatdan ikki fundamental nazariy ob’ektni farqlash maqsadga muvofiq. Ushbu ob’ektlar ekologik ong shakllanishining bazis komponentlari sifatida e’tirof etiladi va ularning har biri o‘ziga xos spesifikaga ega. Birinchi ob’ekt - bevosita ekologik ong bo‘lib, u ijtimoiy va tabiiy fenomenlarning murakkab tizimini aks ettiruvchi ko‘p qatlamli ichki strukturani nazarda tutadi. Mazkur qatlamlar insonning tabiat bilan multifaktorli munosabatlarini, ekologik kompetensiyalarini va atrof-muhitga nisbatan konseptual yondashuvlarini qamrab oladi.

Ikkinchi ob’ekt ommaviy axborot vositalari (OAV) kommunikatsiyalari asosida determinatsiyalanadi - bu virtual-ramziy makon bo‘lib, uning vositasida auditoriya

ongiga zamonaviy insonning ekologik paradigmasi bilan bog‘liq konseptual tasavvurlar, qarashlar, bilimlar, qadriyatlar va normativ mezonlar implementatsiya qilinadi. OAV orqali translyatsiya qilinadigan axborot oqimlari jamiyatning ekologik ongini shakllantirishda determinant vazifasini bajaradi va individlarning ekologik xulq-atvor modellariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu jarayonda zamonaviy media platformalar kompleks ishtirok etadi.

Mazkur ikki ob‘ekt o‘zaro dialektik aloqadorlikda bo‘lib, inson va jamiyat ekologik muammolarining genezisini tashkil etuvchi fenomenlar va jarayonlar doirasida ob‘ektiv borliqni refleksiya qilish mexanizmlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ular bir-birini komplementar tarzda to‘ldiradi va potentsiallashtiradi, shu bilan birga jamiyatda ekologik madaniyatni takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu ikki ob‘ektning konstruktiv interaksiyasi natijasida jamiyatda ekologik ongning innovatsion darajasi shakllanadi va atrof-muhitga nisbatan mas‘uliyatli munosabat institutsionallashadi.

Shu nuqtai nazardan, bizning fikrimizcha, ekologik madaniyatni rivojlantirish va jamiyatda ekologik ongni shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan “Ijtimoiy-ekologik kommunikatsiya” modelining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat.




Mazkur bobning “Ekologik ta’lim tizimini rivojlantirish ekologik madaniyat shakllantirishning asosiy omili sifatida” deb nomlangan ikkinchi faslida ta’lim tizimi jamiyat hayotida fundamental ahamiyatga ega bo‘lib, u insoniyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida tahlil qilinadi.

Bizning fikrimizcha, sotsiomadaniy transformatsiya jarayonida ta’lim tizimi moslashuvchan va innovatsion bo‘lishi kerak. Bugungi kunda jamiyat tez o‘zgarayotgan ekologik sharoitlarga moslashishi, yangi muammolarga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishi zarur. Bunda ta’lim tizimi zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, yangi o‘qitish metodlarini joriy etishi, masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishi, interaktiv ta’lim shakllaridan samarali foydalanishi lozim. Shu bilan birga, an’anaviy

qadriyatlar va milliy madaniyatning ijobiy jihatlarini saqlab qolish va rivojlantirish ham muhim.

Ekologik madaniyat bu tizimli yondashuv nuqtai nazaridan jamiyat hayotining asosiy tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. U ijtimoiy tuzilmani shakllantiruvchi va tizimni yaratuvchi konstruksiya sifatida namoyon bo'ladi. Bu konstruksiyaning asosini uch muhim tayanch tashkil etadi: ekologik ta'lim, ekologik ma'rifat va ekologik tarbiya. Har bir tayanch o'z navbatida alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular birgalikda yaxlit tizimni hosil qiladi.

Bizning fikrimizcha, bu borada uch asosiy yo'nalish zamonaviy ekologik ta'lim modelining asosini tashkil etadi:



Ta'lim tizimini ekologiyalashtirish orqali biz nafaqat bilim berish sifatini oshiramiz, balki jamiyatning ekologik ongini ham yuksaltiramiz. Bu jarayon o'quvchi va talabalarning atrof-muhitga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish, ularda ekologik madaniyatni shakllantirish va tabiatni asrash tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu jarayon o'rta va oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha fanlarni ekologik yo'nalishga moslashtirishni talab etadi. Bunday yondashuv orqali har bir fan doirasida ekologik masalalarni o'rganish imkoniyati yaratiladi va bu o'quvchilarga ekologik muammolarni turli nuqtai nazardan tahlil qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida ekologik komponentlarni barcha o'quv fanlariga integratsiya qilish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu jarayon ta'lim tizimining barcha bosqichlarida - maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilmoqda. Bunda har bir o'quv fanining mazmuniga ekologik komponentlarni kiritish, amaliy mashg'ulotlarda ekologik masalalarni ko'rib chiqish va talabalarda ekologik fikrlashni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali yosh avlodda atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabat shakllantiriladi.

Bunday fanlararo integratsiya talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Ular ekologik muammolarni aniqlash, tahlil qilish va yechim topish mahoratini egallaydilar. Talabalar turli fanlardan olgan bilimlarini birlashtirib, ekologik muammolarga kompleks yondashuvni o'rganadilar. Bu esa o'quvchilarda fanlararo bog'liqlikni tushunish va ekologik muammolarni kompleks hal

etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, ular jamoada ishlash, o'z fikrini asoslash va himoya qilish kabi muhim ko'nikmalarni ham egallaydilar.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar - loyiha metodi, keys-stadi, amaliy tajribalar orqali o'quvchilarda ekologik madaniyat, tabiatga mas'uliyatli munosabat shakllantiriladi. Bu metodlar orqali talabalar real hayotiy muammolarni o'rganish va hal qilish tajribasini oladilar. Ular o'z hududlaridagi ekologik muammolarni o'rganish, monitoring olib borish va yechimlar taklif qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday amaliy faoliyat ularning nazariy bilimlarini mustahkamlaydi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Buning uchun, birinchi navbatda, ta'limga bo'lgan yondashuvlarni jahon pedagogik amaliyoti bilan uyg'unlashtirish zarurati tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim talablaridan biriga aylanib bormoqda. Globallashtirish sharoitida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni umumjahon miqyosidagi, global jarayon ekanligini chuqurroq anglab yetmoqdamiz. Bunda har bir mamlakatning o'ziga xos tajribasi va yutuqlari umumiy rivojlanishga hissa qo'shadi. Bu jarayon turli madaniyat va mamlakatlarning pedagogik hamda tarbiyaviy tajribasiga tayangan holda madaniyatlararo aloqalarni talab etadi. Shu bilan birga, har bir mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan holda, ilg'or xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, ta'lim jarayoniga oid yondashuv va usullarni ishlab chiqishda fanlararo bog'liqlik tamoyiliga amal qilish lozim. Bu yondashuv orqali turli fanlar doirasida olingan bilimlarni birlashtirish va ularning o'zaro aloqadorligini ta'minlash imkoniyati paydo bo'ladi. Fanlararo integratsiya nafaqat bilimlarni kengaytiradi, balki muammolarni kompleks hal etish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Bunday yondashuv talabalarga dunyoni yaxlit tizim sifatida tushunish va turli sohalardagi bilimlarni sintez qilish imkonini beradi.

Uchinchidan, amaliyotga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan yondashuvga tayanish zarurati mavjud. Bunday yondashuv orqali nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirish, real hayotiy vaziyatlarda qo'llash va amaliy natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Amaliy tajriba orqali o'zlashtirilgan bilimlar nafaqat mustahkam o'zlashtiriladi, balki kelajakda kasbiy faoliyatda samarali qo'llanilishi mumkin bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim samaradorligini oshirishga va talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida talabalar real muammolarni hal etish tajribasiga ega bo'ladilar, bu esa ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi bobning yakunlovchi fasli "Ekologik tadbirkorlik" modelining jamiyat sotsiomadaniy transformatsiyasiga ta'siri: ijtimoiy-falsafiy tahlil" deb nomlangan bo'lib, unda tadqiqotchi ekologik tadbirkorlikni zamonaviy iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida o'rganadi hamda uning bir vaqtning o'zida ikki muhim vazifani bajarishini: foyda olish va atrof-muhitni muhofaza qilishini ta'kidlaydi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, chuqur ekologiya ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindisiz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Bu yondashuv nafaqat tabiatni asrash, balki iqtisodiy

samaradorlikni oshirish imkonini ham beradi. Tadbirkorlar ekologik loyihalarni faqat ijtimoiy mas'uliyat nuqtai nazaridan emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan ham qo'llab-quvvatlamogda.

Ekologik tadbirkorlikning asosiy turlariga ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish, ekologik turizm, organik qishloq xo'jaligi, ekologik konsalting va audit xizmatlari, shuningdek ekologik toza qurilish materiallari ishlab chiqarish kiradi. Har bir yo'nalish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular turli sohalaridagi ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan.

Ekologik tadbirkorlik ko'plab afzalliklarga ega bo'lib, ular iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Iqtisodiy jihatdan u yangi bozor segmentlarini o'zlashtirish, resurslardan samarali foydalanish orqali xarajatlarni kamaytirish, davlat tomonidan beriladigan imtiyoz va preferensiyalardan foydalanish hamda keng eksport imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Ekologik foyda sifatida atrof-muhit ifloslanishining kamayishi, tabiiy resurslarning tejalishi, bioxilma-xillikning saqlanishi va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashga hissa qo'shishni ko'rsatish mumkin. Bu esa kelajak avlodlar uchun sog'lom atrof-muhitni saqlab qolish imkonini beradi. Ijtimoiy sohada esa yangi ish o'rinlarining yaratilishi, aholi salomatligining yaxshilanishi, ekologik madaniyatning yuksalishi va umuman olganda hayot sifatining oshishiga olib keladi. Ekologik tadbirkorlik orqali yaratilgan ish o'rinlari odatda yuqori malaka talab qiladigan va yaxshi haq to'lanadigan bo'ladi.

Ekologik tadbirkorlik konsepsiyasi barqaror rivojlanish g'oyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu sohada faoliyat yurituvchi tadbirkorlar nafaqat foyda olishni, balki jamiyat va tabiat oldidagi mas'uliyatni ham his etadilar. Bu mas'uliyat ularning har bir qarorida, har bir loyihasida va faoliyatining barcha jabhalarida o'z aksini topadi. D. Dikson va A. Klifford ta'kidlaganidek, "ekotadbirkorlik uchta asosiy mezon - iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy mas'uliyat va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtiradi". Bu uch omilning uyg'unligi zamonaviy biznesning yangi yo'nalishini belgilab bermoqda. Bunday yondashuv an'anaviy biznes modellarini tubdan qayta ko'rib chiqishni va yangi, barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishni taqozo etadi.

Iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ekologik tadbirkorlik an'anaviy biznes modellaridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu farq eng avvalo resurslardan oqilona foydalanish, chiqindisiz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga e'tibor qaratishda namoyon bo'ladi. Bunda korxonalar nafaqat joriy foydani, balki uzoq muddatli istiqbolni ham hisobga oladilar. Ekotadbirkorlar foyda olish bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhitga ta'sirini doimiy ravishda baholab boradilar va salbiy ta'sirlarni kamaytirish choralari ko'radilar. Ular o'z faoliyatlarida energiya tejankor texnologiyalardan foydalanish, xom ashyoni qayta ishlash va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishadilar.

Ijtimoiy mas'uliyat ekologik tadbirkorlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va u korxonaga faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi. Bu yerda gap nafaqat

xodimlar uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish, balki mahalliy jamoalar bilan faol hamkorlik qilish, aholining ekologik ongini oshirish va jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish haqida boradi. Bunday yondashuv orqali ekotadbirkorlar nafaqat o'z bizneslarini rivojlantiradilar, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadilar. Ekotadbirkorlar o'z faoliyatlari orqali jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirishga yordam beradilar, bu esa o'z navbatida kelajak avlodlar uchun toza va sog'lom muhitni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyatda ekologik ongning oshishi ekotadbirkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayon tobora kengayib, yangi soha va yo'nalishlarni qamrab olmoqda. Iste'molchilar tobora ko'proq ekologik jihatdan mas'uliyatli kompaniyalar mahsulotlarini tanlamoqdalar va o'z xarid qarorlarida atrof-muhit omilini hisobga olmoqdalar. Bu tendensiya nafaqat iste'mol mahsulotlari, balki xizmatlar sohasida ham kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida yangi ekologik tadbirkorlik loyihalarining paydo bo'lishiga turtki bermoqda. Yangi loyihalar esa o'z navbatida bozorda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Ekologik tadbirkorlik jamiyat sotsiomadaniyatiga ta'sirining xosilasi o'laroq, "yashil iste'mol" yoki ekologik iste'mol konsepsiyasi zamonaviy jamiyatning muhim belgisiga aylanib borayotganini kuzatish mumkin. Bu konsepsiya global miqyosda tobora ko'proq e'tibor qozonmoqda va turli sohalarda o'z aksini topmoqda. Bu konsepsiya iste'mol madaniyatining yangi bosqichini ifodalaydi, unda iqtisodiy manfaatlar ekologik qadriyatlar bilan uyg'unlashadi. Bunday uyg'unlik zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim shartiga aylanib bormoqda.

O'zbekistonda ham ekologik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lib, bu soha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, quyosh energetikasi, organik dehqonchilik, ekoturizm kabi yo'nalishlarda katta salohiyat kuzatilmoqda. Bu sohalarning har biri o'ziga xos rivojlanish istiqbollari ega. Davlat tomonidan bu sohani rivojlantirish uchun qonunchilik bazasi takomillashtirilmoqda, turli imtiyozlar berilmoqda va qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilmoqda. Bu esa o'z navbatida tadbirkorlarning bu sohaga qiziqishini yanada oshirmoqda.

XULOSA

"O'zbekistonda ekologik madaniyatni yuksaltirishning jamiyat sotsiomadaniy transformatsiyasiga ta'siri"ni tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ekologik madaniyat O'zbekiston jamiyatining sotsiomadaniy transformatsiyasida yetakchi omil sifatida namoyon bo'lib, milliy qadriyatlar va zamonaviy ekologik talablarning uyg'unlashuvini ta'minlaydi. Bu jarayon jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi yangi ijtimoiy-madaniy paradigmaning shakllanishiga olib keladi. Xususan, ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan tabiatga ehtiromli munosabat, suvni muqaddas bilish, yerni ona kabi aziz ko'rish kabi qadriyatlar zamonaviy ekologik talablar bilan uyg'unlashib, yangi sifat bosqichiga ko'tarilmoqda. Bu esa o'z navbatida, jamiyatda ekologik mas'uliyat hissini kuchaytirib, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar uchun

sogʻlom muhitni saqlab qolish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishga zamin yaratmoqda.

2. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, ekologik madaniyatni yuksaltirish jarayonida anʻanaviy qadriyatlar tizimi va zamonaviy ekologik bilimlarning integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu integratsiya jamiyatning ekologik ongini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarishga xizmat qiladi. Masalan, hashar anʻanasini zamonaviy ekologik aksiyalar bilan uygʻunlashtirish orqali aholining ekologik faolligini oshirish mumkin. Shuningdek, mahalla institutining anʻanaviy tarbiyaviy funksiyalarini ekologik taʼlim va tarbiya bilan boyitish orqali aholining barcha qatlamlarini qamrab oluvchi uzluksiz ekologik maʼrifat tizimini shakllantirish imkoniyati paydo boʻladi. Bunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlarda ekologik maʼrifat targʻibotini olib borish, interaktiv taʼlim usullarini qoʻllash kabi innovatsion yondashuvlar anʻanaviy tarbiya usullari bilan uygʻunlashib ketmoqda.

3. Oʻzbekistonda ekologik madaniyatni rivojlantirishning institutsional mexanizmlari tahlili shuni koʻrsatadiki, taʼlim tizimi, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlarining oʻzaro hamkorligi ekologik madaniyatni yuksaltirishning samarali vositasi hisoblanadi. Bu borada maktabgacha taʼlim muassasalaridan tortib oliy taʼlim muassasalarigacha boʻlgan uzluksiz taʼlim tizimida ekologik taʼlim va tarbiyani takomillashtirish, OAVda maxsus ekologik ruknlar va koʻrsatuvlarni tashkil etish, nodavlat notijorat tashkilotlarining ekologik loyihalarini qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ekologik masalalar boʻyicha jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, fuqarolarning ekologik qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini taʼminlash, ekologik axborotning ochiqligini taʼminlash kabi yoʻnalishlarda ham institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarur.

4. Ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribani oʻrganish va uni milliy sharoitga moslashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, rivojlangan mamlakatlarning “yashil texnologiyalar”, “ekologik taʼlim”, “barqaror rivojlanish”, “ekologik sertifikatlashtirish” kabi sohalardagi ilgʻor tajribasini oʻrganish va joriy etish lozim. Bunda BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari, Parij bitimi kabi xalqaro hujjatlarda belgilangan vazifalarni milliy ekologik siyosat bilan uygʻunlashtirish, xalqaro ekologik standartlarni joriy etish orqali mamlakatimizda ekologik madaniyatni yanada yuksaltirish imkoniyati paydo boʻladi.

5. Ekologik madaniyatni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ekologik monitoring tizimini raqamlashtirish, ekologik muammolar xaritasini yaratish, ekologik maʼlumotlar bazasini shakllantirish, onlayn ekologik taʼlim platformalarini rivojlantirish orqali ekologik madaniyatni yangi bosqichga koʻtarish mumkin. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda ekologik maʼrifat targʻibotini kuchaytirish, ekologik masalalar boʻyicha interaktiv muloqot maydonlarini yaratish, mobil ilovalar orqali ekologik nazoratni amalga oshirish kabi zamonaviy vositalardan foydalanish ham samarali natijalar beradi.

6. Jamiyatning ekologik madaniyati darajasi bilan iqtisodiy rivojlanish o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud bo'lib, ekologik madaniyatning yuksalishi "yashil iqtisodiyot" tamoyillarining joriy etilishiga va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam beradi. Bu bog'liqlik, birinchi navbatda, ishlab chiqarish jarayonlarida ekologik omillarni inobatga olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash kabi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Xususan, korxonalarda toza texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, ekologik sertifikatlashtirish tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin. Shuningdek, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va iste'mol madaniyatini shakllantirish orqali aholi salomatligini yaxshilash va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash imkoniyati paydo bo'ladi.

7. Ekologik madaniyatni yuksaltirishda ta'lim tizimining roli alohida ahamiyat kasb etib, maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz ekologik ta'lim tizimini takomillashtirish zarurati mavjud. Bu yo'nalishda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tabiatga mehr-muhabbat tuyg'ularini singdirish, umumta'lim maktablarida ekologik bilimlarni chuqurlashtirish, oliy ta'lim muassasalarida esa mutaxassislik yo'nalishlariga mos ravishda ekologik kompetensiyalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv ta'lim usullari va raqamli vositalardan foydalanish orqali ekologik ta'limning samaradorligini oshirish mumkin. Bunda o'quv dasturlarini takomillashtirish, o'quv-uslubiy ta'minotni yaxshilash, pedagog kadrlarning malakasini oshirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga, norasmiy ta'lim, masofaviy ta'lim va mustaqil ta'lim shakllarini rivojlantirish orqali aholining barcha qatlamlarini qamrab oluvchi uzluksiz ekologik ta'lim tizimini shakllantirish zarur.

8. Xalqaro tajribaning qiyosiy tahlili asosida O'zbekistonda ekologik madaniyatni rivojlantirishning milliy modeli ishlab chiqildi. Bu model mahalliy shart-sharoitlar va global ekologik talablarni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Milliy model o'zida an'anaviy qadriyatlar, mahalla instituti, oila instituti kabi milliy institutlarning imkoniyatlarini, shuningdek, zamonaviy ekologik standartlar, xalqaro ekologik huquq normalari va ilg'or xorijiy tajribani mujassamlashtirgan. Xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining ekologik ta'lim tizimi, Yaponiyaning chiqindilarni qayta ishlash tajribasi, Janubiy Koreyaning "yashil texnologiyalar"ni joriy etish amaliyoti kabi ilg'or yutuqlar milliy sharoitga moslashtirilgan holda joriy etilmoqda. Bunda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari, Parij bitimi kabi xalqaro hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarish bilan birga, mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlari, demografik vaziyati, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari va madaniy qadriyatlari inobatga olingan. Milliy modelning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O'zbekistonda ekologik madaniyatning yangi bosqichga ko'tarilishiga va jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

9. Ekologik madaniyatni yuksaltirishda raqamli texnologiyalarning roli ortib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali ekologik ma'rifatni targ'ib qilish samaradorligi isbotlandi. Xususan, Facebook, Instagram, Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlarda ekologik mavzudagi guruhlar va kanallarning faoliyati, onlayn ekologik aksiyalar va fleshmoblar, ekologik muammolar bo'yicha jamoatchilik muhokamalari samarali natijalar bermoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida ekologik monitoring

tizimini takomillashtirish, atrof-muhit holatini kuzatish va nazorat qilish imkoniyati kengaymoqda. Masalan, mobil ilovalar orqali aholi ekologik qonunbuzarliklar haqida tezkor xabar berish, GPS texnologiyalari yordamida noqonuniy chiqindixonalarni aniqlash, dronlar yordamida o'rmon massivlarini nazorat qilish kabi yangi imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ekologik prognozlash tizimini rivojlantirish, "aqli shahar" konsepsiyasida ekologik komponentlarni kuchaytirish, ekologik ma'lumotlar bazasini raqamlashtirish kabi yo'nalishlarda ham sezilarli yutuqlarga erishilmoqda.

10. Jamiyatning ekologik madaniyatini yuksaltirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari ekologik loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Davlat-xususiy sheriklik doirasida "yashil texnologiyalar"ni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini tashkil etish kabi yirik loyihalarni amalga oshirish mumkin. Bunda davlat tomonidan xususiy sektorga soliq imtiyozlari, preferensiyalar va subsidiyalar taqdim etish, infratuzilma bilan ta'minlash kabi qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilishi lozim. Shu bilan birga, ekologik ma'rifat sohasida ham davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish, xususiy sektorning ekologik ta'lim dasturlarini moliyalashtirishdagi ishtirokini rag'batlantirish, korporativ ekologik mas'uliyatni kuchaytirish zarur. Bu borada xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish, qonunchilik bazasini takomillashtirish, institutsional mexanizmlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

11. Ekologik madaniyatni yuksaltirishda mahalla institutining roli alohida o'rin tutadi. Mahalla darajasida ekologik tadbirlarni tashkil etish va ekologik nazoratni amalga oshirish mexanizmlari takomillashtirildi. Mahalla fuqarolar yig'inlari qoshida "Ekologik nazorat" guruhlarini tashkil etish, mahalla faollarini ekologik masalalar bo'yicha o'qitish, mahalla hududida muntazam ekologik monitoring olib borish kabi yangi amaliyotlar joriy etilmoqda. Shuningdek, mahalla darajasida aholi o'rtasida ekologik targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, ekologik aksiyalar va tadbirlarni tashkil etish, ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha samarali mexanizmlar yaratilmoqda. Mahalla institutining an'anaviy tarbiyaviy funksiyalarini ekologik yo'nalishda kuchaytirish, yoshlar o'rtasida ekologik madaniyatni shakllantirishda mahalla imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ekologik muammolarni hal etishda mahalla va davlat organlari hamkorligini mustahkamlash kabi masalalar ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mahalla darajasida ekologik madaniyatni yuksaltirish bo'yicha ilg'or tajribalarni ommalashtirish, mahallalararo hamkorlikni rivojlantirish orqali yanada yuqori natijalarga erishish mumkin.

Bu xulosalar dissertatsiyaning asosiy ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini aks ettiradi hamda kelgusidagi tadqiqotlar uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.04.2021.F.76.06
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАМАНГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

РЕНЕССАНС ТАЪЛИМ УНИВЕРСИТЕТИ

МУРАТОВА ДИЛДОРА АБДУМАНАПОВНА

**ВЛИЯНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА
СОЦИОКУЛЬТУРНУЮ ТРАНСФОРМАЦИЮ ОБЩЕСТВА В
УЗБЕКИСТАНЕ**

09.00.04- Социальная философия

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философских наук (DSc)**

Наманган 2025

Тема диссертации на соискание степени доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.1.DSc/Fa1298

Диссертация выполнена в Ренессанс университет образования.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (namdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Тилов Уктам Гуломович
доктор философских наук, профессор

Официальные оппоненты:

Омонов Боходир Нуруллаевич
доктор философских наук, профессор

Мухторов Азамат
доктор философских наук, профессор

Эгамбердиев Азизбек Абдумаликович
доктор философских наук, профессор

Ведущая организация:

**Ташкентский государственный
медицинский университет**

Защита диссертации состоится на заседании Разового Научного совета по присуждению учёной степени доктора наук (DSc) на базе Научного совета по присуждению ученых степеней (PhD) при Наманганском государственном университете за номером PhD.03/30.04.2021.F.76.06 «__» _____ 2025 года в __ часов (Адрес: 160107, город Наманган, улица Бобуршох, дом 161, здание факультета социальных наук Наманганского государственного университета, 1 этаж, кабинет 101. Тел./факс: (998-69) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного университета (зарегистрирована за № ____). (Адрес: 160107, город Наманган, улица Бобуршох, дом 161. Здание ИРЦ). Тел./факс: (998-69) 228-85-02.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 г.

(реестр протокола рассылки № ____ от «__» _____ 2025 г.

Р.Т.Жураев

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор политических наук (DSc), профессор

К.О.Махкамов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии социологических наук (PhD), доцент

М.И.Исмоилов

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В XXI веке все более обостряются такие глобальные проблемы, как экологический кризис, изменение климата и утрата биоразнообразия и превращаются в одну из самых серьезных угроз, с которыми сталкивается человечество. Это обуславливает необходимость формирования ответственного отношения к окружающей среде посредством развития экологической культуры. Ибо только путем формирования экологической сознательности и культуры у каждого члена общества можно решить существующие проблемы и предотвратить возникновение новых экологических проблем в будущем. Поэтому возникает необходимость в глубоком научном и философском изучении экологической культуры и ее роли в жизни общества, совершенствовании ее теоретических основ, разработке концептуальных подходов. Это, в свою очередь, требует комплексного изучения философских, социологических, психологических и педагогических аспектов экологической культуры, разработки новых теоретико-методологических подходов с учетом наших национальных особенностей, создания эффективных механизмов развития экологической культуры и формирования научно обоснованной системы их реализации на практике, основанной на глубоком изучении мирового опыта.

Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев особо остановился на этом вопросе и подчеркнул: «Самая главная задача – нам необходимо серьезно задуматься о повышении экологической культуры населения. Разумеется, такие проблемы невозможно решить только административными методами, этого можно добиться, воспитывая в сердцах подрастающего поколения любовь к родной природе и чувство принадлежности к ней»⁴.

В современном обществе все более актуальной становится необходимость обновления системы общественных ценностей и формирования нового отношения к окружающей среде через формирование экологического сознания и культуры. Это сложный процесс, требующий долгосрочного и системного подхода, а также активного участия всех членов общества. В этой связи важно формировать чувство экологической ответственности, развивать чуткое отношение к природе, формировать модели экологического поведения. Потому что взаимоотношения человека с природой являются неотъемлемой частью его общего культурного уровня и духовных ценностей. Поэтому развитие экологического сознания и культуры создает возможность не только сохранения природы, но и повышения духовно-нравственных ценностей общества, установления гармоничных отношений человека и природы.

⁴ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. — Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. 6.570

Все более актуальной становится необходимость обновления системы общественных ценностей и формирования нового отношения к окружающей среде через формирование экологического сознания и культуры в обществе. Это сложный процесс, требующий долгосрочного и системного подхода, а также активного участия всех членов общества. Также повышение экологической культуры обуславливает необходимость совершенствования экологического образования и воспитания на всех ступенях системы непрерывного образования, формирования экологического мировоззрения у подрастающего поколения. Для достижения этой цели необходимо постоянное совершенствование процессов экологического на всех уровнях – от дошкольного до высшего образования, внедрять современные педагогические технологии и, что самое главное, обеспечивать тесную связь теории с практикой.

